

# TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent pediatriya tibbiyot  
instituti rektori  
B.T.Damirov

2022 yil



## PERINATAL DAVRDAGI YUQUMLI KASALLIKLAR MODULI DASTURI

Bilim sohasi: 900000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot  
Ta'lim sohasi: 910000 - Sog'liqni saqlash  
Mutaxassislik: 70910306 – Neonatologiya

Toshkent – 2022

**Tuzuvchilar:**

- A.V Alimov – Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutining Neonatologiya kafedrası mudiri professor.
- M.A. Gulyamova – Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutining Neonatologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.
- Z.J. Raxmankulova – Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutining Neonatologiya kafedrası dotsenti, t.f.d.
- M.A. Ismailova – Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutining Neonatologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.

**Taqrizchilar:**

F.S.SHamsiyev – Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutining Pediatriya kafedrası mudiri, t.f.d., professor.

E.A.SHamansurova – ToshPTI Poliklinik pediatriya kafedrası mudiri, t.f.d.

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti MUK yigilishida ko'rib chiqilgan va tasdiklashga tavsiya berilgan. (2022 yil “\_24\_” avgust “\_\_1\_\_” – sonli bayonnoma).

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2022 yil “\_31\_” avgust “\_\_314\_\_” – sonli buyruq 3- ilova).

## **1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni**

O'zbekistonda onalik va bolalikni muxofaza qilish Sog'liqni Saqlashni va Davlat dasturlarining asosiy yunalishlaridan hisoblanadi. Xalqaro Barqaror Rivojlanish Maqsadlaridan biri (SDGs) bolalar sog'ligini saqlash va gudaklar o'limini kamaytirishga qaratilgan.

Oxirgi o'n yillikda perinatal kasalliklar bolalar va gudaklar o'limi strukturasi yetakchi urinlarni egallab kelmokda. Butun dunyo bolalar o'limi xisoboti ma'lumotlari bo'yicha, 2019 yil davomida 2,4 million bola xayotining dastlabki oyida vafot etgan, bu o'z navbatida xar kuni yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 6700 nafari vafot etganini bildiradi. Barcha o'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 75 foizi xayotining birinchi xaftasida vafot etgan. Dunyo bo'yicha 2019 yil davomida 5 yoshgacha kuzatilgan bolalar o'limining 47foizini neonatal o'lim tashkil etgan. Butun dunyoda 2 millionga yaqin o'lik to'g'ilish kuzatiladi, bu xar 16 sekunda 1ta o'lik bola tug'ilayotganidan dalolat beradi. Bu o'limlarning asosiy qismini tegishli perinatapl parvarish yordamida oldini olish mumkin edi (Child mortality report 2020, WHO, WB).

Magistr neonatolog - tayyorlash modul dasturi talabalarni chaqaloqlarni parvarishlash asoslari, ona va bola salomatligini saqlash, yangi tug'ilgan chaqaloqlik davrini ko'p uchraydigan kasalliklarni davolash va oldini olish chora-tadbirlarini uz ichiga oladi.

Respublikamizda sog'likni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan qator islohatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni inobatga olgan holda ushbu modul dasturida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, neonatal davridagi chakaloklarda kasalliklarini oldini olish, zamonaviy diagnostika va turli xil kasalliklarni davolashni yuqori texnologiyali usullarini qamrab olishga aloxida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari dunyoviy va mahalliy epidemiologik holatni inobatga olgan holda, yuqumli kasalliklarda chaqaloqlar bilan ishlash, diagnostika va davolash xususiyatlari, tug'ruq komplekslarini, neonatal bo'limlarni ish faoliyatini takomillashtirish kabi savollarga alohida mavzular ajratilgan.

Magistrlardan homila va onaga tug'ruqgacha tibbiy yordamni kursatish asoslari; yangi tug'ilgan chaqaloqlarni jismoniy rivojlanishi va yetukligini baxolash; sog'lom va kasal chaqaloqlarni ovkatlantirish; yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash tamoyillari; laborator va asbobiy tekshiruvlar taxlili; yangi tug'ilgan chaqaloqlik davri patologik xolatlari diagnostikasi; yangi tug'ilgan chaqaloqlarni reanimatsiyasi asoslari va usullari; oila sharoitida epidemiyaga karshi va profilaktik tadbirlarni tashkil qilish; yangi tug'ilgan chaqaloqlarda immunoprofilaktika o'tkazish kabi amaliy kunikmalarni o'zlashtirish talab kilinadi.

Neonatologiya mutaxassislik bo'yicha ushbu modul dasturi qo'yilgan DTS talablari asosida tuzilgan.

## **2. Modul dasturining maqsadi va vazifalari**

**2.1. Modul dasturining vazifalari** - davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida magistr talabning bilimi, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan modul tomonidan mehnat bozori talablariga, xamda sertifikatatsiya va keyingi litsenziyalash talablariga to'liq javob beradigan mutaxasislarni tayarlashdan iborat.

**2.2 Modulning vazifalari** - YAngi tug'ilgan chaqaloqlik davri yuqumli va xomila ichi kasalliklari epidimologiyasi, etiologiyasi, patogenezi xaqidagi bilimlarni zamonaviy darajada shakllantirish; neonatal davri yuqumli va xomila ichi kasalliklari diagnostikasini zamonaviy usullarini qo'llash buyicha bilimlarni shakllantirish va natijalarini taxlil qilishni urgatish; neonatolog amaliyotida zarur buladigan davolash diagnostika tadbirlari xajmini mustaqil aniqlash kunikmalarini shakllantirish. Tug'ruq zalida yangi tug'ilgan chaqaloqlarga birlamchi renimatsiya kunikmalarini o'rgatish; YAngi tug'ilgan chaqaloqlik davrida yuzaga keladigan shoshilinch xolatlarda ko'rsatiladigan zamonaviy yuqori malakali tibbiy yordam kunikmalarini o'rgatish. YUqumli va xomila ichi patologiyali chaqaloqlarga utkazaladigan reabilitatsiya tadbirlari xaqidagi bilimni shakllantirish; YAngi tug'ilgan chaqaloqlik davrida keng uchraydiagn yuqumli va xomila ichi kasalliklarni va ularni asoratlarini kamaytirish buyicha amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlarni o'tkazishni o'rgatish; davlat dasturlarini, zamonaviy farmoiyshlarini o'rgatish va qo'llash;

- neonatologiyaga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or horijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda modul mavzularini shakllantirish;

- modulni o'zlashtirish, talabalarda modulga oid kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur o'quv-uslubiy shartlar, o'quv adabiyotlar va didaktik materiallarni belgilash;

- baholash vositalari yordamida talabalar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

**2.3. Modul dasturi bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar( 4 semestr):**

- infeksiya nazorat tizimi;
  - tibbiyot xodimlarini, bemorlarni, tibbiyot muassasasini infeksiyadan xavfsizligini ta'minlash;
  - aseptika va antiseptika, davolash profilaktika muassasalari bilan sanitar epidemiologik muassasalararo bog'liqlik tizimi faoliyati;
  - chaqaloqlik davri infeksiyalarining dolzarb muammolari;
- yangi tug'ilgan chaqaloqlar infeksiyasi nazorati bo'yicha zamonaviy xalqaro tavsiyalar **haqida tasavvurga ega bo'lishi**

- bakterial infeksiyalar, gospital infeksiyalarning epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezini, xavf omillari, homila ichi infitsirlanish mezonlari, klinik kechish xususiyatlarini;
- yiringli yallig'lanish kasalliklarning mahalliy turlarini;
- yiringli yallig'lanish kasalliklarining tarqalgan turlarini;
- muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarning yiringli septik infeksiyalarini kechish xususiyatlarini;
- teri va teri osti yog' qavati kasalliklarining tashxisot mezonlarini;
- mahalliy yiringli yallig'lanish kasalliklarini tashxislash mezonlari va davosini;
- bakterial infeksiyani tashxislash va davolashni BJSST bayonnomalari va standartlarini;
- chaqaloqlarda gospital infeksiyalar, bakterial infeksiyalar, tashxisoti va davolashda yangi texnologiyalarni;
- neonatal va antenatal davrlarda sepsis, gospital infeksiyalarni zamonaviy davolash usullarini;

HII, sepsis, gospital infeksiyalar oldini olish chora tadbirlarini ***bilishi va foydalana olishi kerak;***

- sepsis, bakterial infeksiyali chaqaloqlarning ko'ruvi;
- davolash standartlari va bayonnomalari;
- Septik shokning turli shakllarida tezkor chora-tadbirlar utkazish;
- laborator – instrumental, immunologik, morfologik, bioximik tekshirish usullarini tahlil qilish;
- orqa miya punksiyasi;
- orqa miya suyuqligi taxlilining interpritatsiyasini o'tkazish;
- epidemiyaga qarshi himoya va profilaktik chora tadbirlarni qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***

Terining mavjud bulgan infeksiyon kasalliklari, terining tug'ma uzgarishi, noinfeksiyon kasalliklari, kindikning infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklari, teri osti yog' qavatining infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarini; Sepsis nima sababdan kelib chiqadi. Moyillik tug'diruvchi omillar, tasnifi, sepsisning turli shakllarining klinik kechishi, patogenetik davolash tartibi, asoratlarini bilishi kerak.

- YATCH onalaridan yukori malakali anamnez yig'ish; YATCHlarni klinik tekshiruv va nevrologik kuruvni mukammal bajarish; Qo'shimcha tekshiruv (laborator, funksional, gormonal, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik, morfologik) natijalarni taxlil qilish; Teri va teri osti yog' qavatini infeksiyon va noinfeksiyon tug'ma kasalliklarini dif.diagnostika qilish, kindikning infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarini dif.diagnostika qilish, davolash me'yorlarini utkazish, profilaktikasini utkazish;

Tasnifga ko'ra sepsis shaklini to'g'ri aniqlash, farqlash tashxisini o'tkazish, sepsisda yangi tug'ilgan chaqaloqqa ob'yektiv parvarish va davo o'tkazish, barcha bemor bolalarni bakterial infeksiyalar bo'yicha tasnif qilish; Laborator ma'lumotlar va klinik ko'rinishiga qarab to'g'ri tashxis qo'yish, infeksiyon kasalliklar orasida farqlash tashxisi o'tkazish, ***kunikmalariga ega bulishi kerak.***

***Modul dasturi bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar( 5 semestrda):***

- infeksiyon nazorat tizimi;
- tibbiyot xodimlarini, bemorlarni, tibbiyot muassasasini infeksiyadan xavfsizligini ta'minlash;
- aseptika va antiseptika, davolash profilaktika muassasalari bilan sanitar epidemiologik muassasalararo bog'liqlik tizimi faoliyati;
- chaqaloqlik davri infeksiyalarining dolzarb muammolari;  
yangi tug'ilgan chaqaloqlar infeksiyasi nazorati bo'yicha zamonaviy xalqaro tavsiyalar ***haqida tasavvurga ega bo'lishi***
- homilada va chaqaloqlarda homila ichi infeksiyasining antenatal tashxisotining zamonaviy usullarini;
- homila ichi infeksiyalarining klinik turlari, tashxisoti va zamonaviy davolash mezonlarini;
- homila ichi infeksiyalarini (HII) tashxisoti va davolashda yangi texnologiyalarni;
  - HII ni davolashda ishlatiladigan zamonaviy dori vositalari va ularning qo'llanish tartibini;
  - HII oldini olish chora tadbirlarini ***bilishi va foydalana olishi kerak;***
  - HII kasalangan chaqaloqlarning ko'ruvi;
  - XII kasalligida chakalok xolatini xisobga olgan xolda ratsional irfuzion va transfuzion terapiya utkazish;
  - Pereferik va kindik vena kateterizatsiyasini utkazishga kursatmalarni aniklash, kateterizatsiya utkazish va kilinayotgan infuziyalarni nazorat kilish;
  - XII kasalligida bemorda utkir yurak-kontomir, nafas, asab, jigar, buyrak yetishmovchiligi sindromlari, endokrin genezli kritik xolatlar kuzatilganda tezkor chora-tadbirlar utkazish;
  - XII kasalligida ratsional antibiotikoterapiya utkazish
  - davolash standartlari va bayonnomalari;
  - laborator – instrumental( NSG, ExoEG, KT, MRT), immunologik, morfologik, bioximik tekshirish usullarni tahlil qilish;
  - epidemiyaga qarshi himoya va profilaktik chora tadbirlarni qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***

- HII bilan YATCH onalaridan yukori malakali anamnez yig'ish; YATCHlarni klinik tekshiruv va nevrologik kuruvni mukammal bajarish; Qo'shimcha tekshiruv (laborator, funksional, gormonal, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik, morfologik) natijalarni taxlil kilish; HII YATCH kasalliklarini dif.diagnostika qilish, davolash me'yorlarini utkazish, profilaktikasini utkazish; Tasnifga ko'ra HII shaklini to'g'ri aniqlash, farqlash tashxisini o'tkazish, ularni ob'yektiv parvarish va davo o'tkazish. Laborator ma'lumotlar va klinik ko'rinishiga qarab to'g'ri tashxis qo'yish, va infeksiyon kasalliklar orasida farqlash tashxisi o'tkazish, va to'g'ri davo o'tkazish ***kunikmalariga ega bulishi kerak.***

- Homila ichi infeksiyasi bilan tug'ilgan chaqaloqlarning laborator-instrumental tekshiruvlar interpretatsiyasi ***malakasiga ega bulishi kerak.***

### **3. Asosiy qism**

***3.1. Modul dasturidagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

*Fanda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan*

***3.2. Fandagi amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

***3.2.1. Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarining mavzular ro'yhati( 4 semestr):***

:

**1.blok. Teri va teri osti kletchatkasi infeksiyon kasalliklari.**

Stafilodermiyalar va streptodermiyalar. Kindikning infeksiyon kasalliklari.

**1.mavzu:** Stafilodermiyalar:

- vezikulopustulez,
- chaqaloqlar pufakchasi (pemfigus),
- Ritterning eksfoliativ dermatiti,
- stafilokokk kuygan teri sindromi (SS),
- Figner psevdofurunkulezi,
- chaqaloqlar mastiti,
- chaqaloqlarni nekrotik flegmonasi

**2.mavzu:** Streptodermiyalar:

- saramas,
- intertrigenoz streptodermiya,
- papuloeroziv streptodermiya,
- vulgar ektima,
- paronixiyalar

**3.mavzu:** Kindikning infeksiyon kasalliklari:

- kataral omfalit (namlangan kindik),
- yiringli omfalit,
- kindik yarasi,
- kindik tomirlari kasalliklari,
- kindik tizimchasi gangrenasi.

**2.blok. Bakterial sepsis.** YAngi tug'ilgan chaqaloqlar sepsisi. Etiologiya. Olib keluvchi xavf omillar. Immunitet. Klinika. Muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarda sepsisi kechishini xususiyatlari. CHaqaloqlarda ko'zg'atuvchi turiga qarab sepsisni kechishini xususiyatlari.

**1.mavzu:** YAngi tug'ilgan chaqaloqlar sepsisi.

- Kasallikning kelib chiqishidagi xavf omillari
- Patogenezi. Klinika.
- Erta va kechki neonatal sepsisning klinik belgilari
- Asoratlari. Tashxisot va qiyosiy tashxisot.
- Davolash va rehabilitatsiya. Antibakterial davolash prinsiplari
- Muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarda sepsisi kechishini xususiyatlari.

**2.mavzu** CHaqaloqlarda ko'zg'atuvchi turiga qarab sepsisni kechishini xususiyatlari.

- Stafilokokkli sepsis
- Grammanfiy yiringli sepsis
- Ko'k yiringli sepsis
- Anaerob flora kuzgatuvch sepsisi
- Klebsiyellyoz sepsis
- Kolisepsis.
- Gemofilik sepsis

*Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarining mavzular ro'yhati(5semestr)*

**3.blok Homila ichi infeksiyalari.** Homila ichi infeksiyalarining. Turli xil homila ichi infeksiyalarining umumiy belgilari. Tug'ma infeksiyani klinik belgilari. Tashxisot. Davolash. Profilaktika. CHaqaloqlarda hospital infeksiyalar.

**1.mavzu:** Homila ichi infeksiyalari.

- Homila ichi infeksiyalarining zamonaviy tushunchalariTug'ma infeksiyani aniqlash chastotasi. "TORCH sindromi" tushunchasi. Etiologiya. Patogenez. XIIning umumiy klinik belgilari
- Homila ichi infeksiyalarining diagnostikasining zamonaviy tamoyillari.
- Tug'ma virusli infeksiyala: sitomegalovirusli infeksiya, gerpetik infeksiya (uchuq), kizilcha, suvchechak, epidemik parotit, gepatit.TSMV, Qizilcha bilan kasallangan onadan tug'ilgan chaqaloqni olib borish



- Enterovirusli va respirator virusli infeksiyalar. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxisot. Davolash. Profilaktika.
- Toksoplazmoz. Listerioz. Xlamidioz. Mikoplazmoz. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxisot. Davolash. Profilaktika. Toksoplazmoz bilan kasallangan onadan tug'ilgan chaqaloqni olib borish taktikasi.
  - Tug'ma sifilis. OITS. VICH turlari Patogenez. Klinika. Tashxisot. Davolash. Profilaktika
  - Intranatal bakterial infeksiyalar. Tug'ma tuberkulez. Patogenez. Klinika. Tashxisot. Davolash. Profilaktika
  - Koronavirusli infeksiya. Patogenez. Klinika. Tashxisot. Davolash. Profilaktika

## **2.mavzu. Kandidozlar.**

- Etiologiya. Olib keluvchi omillar. Patogenez. YATCHlarda kechish xususiyatlari. Tashxisot. Davolash. Profilaktika.
- Nazokomeal infeksiyalarning klinik shakllari. Kasalxona ichi infeksiyalarning profilaktikasi.
- CHaqaloqlik davrida antibiotikoterapiya. Homila ichi infeksiyalari bilan kasallangan onalardan tug'ilgan chaqaloqlarni olib borish taktikasi

### ***3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar***

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### ***3.2.3. Fanni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar***

***Modul dasturi davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati(4 semestr):***

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan va quyidagi holatlar va kasalliklarda tashxis qo'yishi, taktika va zaruriy davoni olib borishi :

- meningit, meningoensefalit;
- infeksion jaroxatlanishi (o'tkir respirator virus kasalligi, laringotraxeit, bronxiolit, pnevmoniya);

- yiringli – yallig'lanish kasalliklarning lokalizatsiyalashgan shakli (vezikulopustulez, pufakcha, mastit, paraproktit, qon'yunktivit, dakriotsistit, omfalit va b.);
- yiringli – yallig'lanish kasalliklarning og'ir shakli (flegmona, yiringli limfadenit, yiringli parotit, osteomiyelit, o'pkaning stafilokokkli jaroxatlanishi, yazvali-nekrotik enterokolit, peritonit, sepsis);
- muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli – septik infeksiyasi kechishining o'ziga hosligi (maxalliy yiringli jarayon, sepsis);
- patologoanatomik xizmatlarni tashkillashtirish;
- yangi tug'ilgan chaqaloqlarni asosiy laborator, funksional va xususiy tekshiruv usullari;
- chaqaloqlarni tug'ruqxona va shifoxanalardan reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlariga (markazlariga) o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar;
- asbob va uskunalarni dezinfeksiya qilish va sterilizatsiyalash usullari. - yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ob'yektiv tekshiruv;
- chaqaloqning og'irlik xolatini baxolash; zaruriy tez yordamni ko'rsatish;
- zaruriy qo'shimcha tekshiruv usullarini aniqlash (laborator, rentgenologik, funksional va b.) va natijalarini taxlil qilish;
- tashxis qo'yish; davo olib borish re'jasini, taktika va sxemasini asoslash;
- zaruriy kompleks davoprofilaktika chora tadbirlarini o'tkazish;
- kuzatuv-tashxislovchi va davolovchi asbob, uskunalar bilan (kuvez, suniy upka apparatlari, turli xil monitorlar va b.);
- bolalarni klinik tekshiruvdan o'tkazish chora-tadbirlari;
- sanitariya-tarbiya ishlarini olib borish va gigiyenik ta'limni amalga oshirish;
- chaqaloqning og'irlik xolatini baxolash; zaruriy tez yordamni ko'rsatish.

***Modul dasturi davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati( 5 semestr):***

- O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan va quyidagi holatlar va kasalliklarda tashxis qo'yishi, taktika va zaruriy davoni olib borishi:
- homila ichi infeksiyasi:tug'ma virusli infeksiyala ( sitomegalovirusli infeksiya, gerpetik infeksiya (uchuq), kizilcha, suvchechak, epidemik parotit, gepatit.TSMV);
  - homila ichi infeksiyasi:-enterovirusli va respirator virusli infeksiyalar;
  - homila ichi infeksiyasi : toksoplazmoz, listerioz, xlamidioz. Mikoplazmoz;
  - homila ichi infeksiyasi: tug'ma sifilis. OITS. VICH turlari
  - homila ichi infeksiyasi: intranatal bakterial infeksiyalar. tug'ma tuberkulez;
  - Koronavirus infeksiyasi;
  - Kandidozlar.
  - patologoanatomik xizmatlarni tashkillashtirish;
  - laborator, funksional va xususiy tekshiruv usullari;
  - chaqaloqlarni tug'ruqxona va shifoxanalardan reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlariga (markazlariga) o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar;

- homila ichi infeksiyasi bilan kasalangan chaqaloqning og'irlik xolatini baxolash;
- zaruriy tez yordamni ko'rsatish;
- zaruriy qo'shimcha tekshiruv usullarini aniqlash (laborator, rentgenologik, funksional va b.) va natijalarini taxlil qilish;
- tashxis qo'yish; davo olib borish re'jasini, taktika va sxemasini asoslash;
- zaruriy kompleks davo-profilaktika chora tadbirlarini o'tkazish;
- kuzatuv-tashxislovchi va davolovchi asbob, uskunalar bilan (kuvez, lampa va fototerapiya, suniy upka apparatlari, turli xil monitorlar va b.);
- sanitariya-tarbiya ishlarini olib borish va gigiyenik ta'limni amalga oshirish;

***Modul dasturi davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:***

UK 1<sup>1</sup>. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 7. Soglikni saklash tizimida Davlat siyosati va normativ-xukukiy boshkarishni ishlab chikarish uchun kerak buladigan urta va oliy tibbiy ma'lumot programmolari, xamda malaka oshirish uchun muljallangan kushimcha kasbiy programmalar buicha pedagogik faoliyat kursatishga tayyor bulish.

UKK 1<sup>2</sup>. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil yetish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

---

<sup>1</sup> УК- умумий компетенция

<sup>2</sup> UKK – умумий касбий компетенция

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

UKK 7. Profilaktik faoliyatida soglikni saklash va mustaxkamlashga karatilgan, soglom xayot tarzini shakillantirish, kasallikni yuzaga kelishi va tarkalishini oldini olish, ularning erta diagnostikasini utkazish, kasallik rivojlanishi va kuchayishining sabablarini aniklash, va atrof muxitning odam organizmiga zararli ta'sirini bartaraf kilishni uz ichiga olgan tadbirlar majmuasi(kompleksi)ni amalga oshirishga tayyor bulish .

UKK 8. Profilaktik tibbiy kuruvlar va dispanserizatsiyani utkazish, xamda soglom va surunkali bemorlarga dispanser nazoratni amalga oshirishga tayyor bulish.

UKK 9. Diagnostik faoliyatida kasalliklar va soglik bilan boglik bulgan muammolarning Xalkaro statistik klassifikatsiyasiga mos ravishda bemorlarda patologik xolatlar, kasallik simptomlari, sindromlar va nozologik turlarni aniklashga tayyor bulish

UKK 10. Davolash faoliyatida neonatologik tibbiy yordamga muxtoj bulgan bemorlarni davolash va olib borishga tayyor bulish.

UKK 11.Reabilitatsion faoliyatida tibbiy reabilitatsiyaga muxtoj bemorlarga nomedikamentoz dorilarni kullash va reabilitatsiyaning boshka turlarini amalga oshirishga tayyor bulish.

UKK 12.Psixologo-pedagogik faoliyatida bemorlar, ularning oila a'zolari va axoli urtasida uzi va atrofdagilarning sogligini saklash va mustaxkamlashga karatilgan yondashuvni (motivatsiyani) shakillantirishga tayyor bulish.

UKK 13.Tashkiliy-boshkaruv faoliyatida tibbiyot muassasalari va bulimlarida soglikni saklash tizimining tashkillashtirish va boshkarishning asoasiy tamoillarini kullashga tayyor bulish.

Asosiy tibbiy-statistik kursatkichlarga asoslanib, tibbiy yordam kursatilishining sifatini baxolashda ishtirok etishga tayyor bulish.

### ***Modul dasturi davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

Talabanning malaka amaliyoti ta'lim jarayonining 50% ini tashkil qiladi va amaliy mashg'ulotlar klinika va uning bo'limlarida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talablar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni

qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofil'mlar orqali namoish etiladi, algoritmi asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba (magistr) amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida keyin umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam algoritmi va videofil'mi, o'kuv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda nazorat pedagog tomonidan amalga oshiriladi va kerak bo'lganda talabalar (magistrlar) ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Talaba (magistr), uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa magistrarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa magistrlar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan magistrning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darsigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarihlari va ambulator kartalar va x.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa magistrlar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan magistrning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba (magistr) tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'lla olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb xisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba (magistr) bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib ximoya qilganda baxolanadi.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talaba (magistr)ning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba (magistr) amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba (magistr) barcha amaliy

ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda mutaxassislikni o'zlashtirgan hisoblanadi

#### **4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

##### ***4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxat***

1. Polimeraza zanjir reaksiyasi bilan YATCH HII diagnostikasi.
2. HII infeksiyalar belgilarini sifatida yallig'lanishga qarshi sitokinlar markerlari.
3. Infeksiya – yallig'lanish YATCH kasalliklarida immunokoreksiya tizimi.
4. HII bilan YATCH immunologik xususiyatlari.
5. HII tashhishlashning klinik, morfologik va sitologik mezonlari va ularni assoratlarini bashorat qilish.
6. HII bilan YATCH asab tizimini jaroxatlari.
7. Xomilaning HII bilan YATCH yuqori bo'lgan fetoplatsentalarining xolati.
8. YATCH HII bilan kasalliklarida immunitetni ximoya qilish mexanizmlari.
9. HII diagnostikasida sitokinlar.
10. Genital herpes bilan kasallangan onalardan tug'ilgan chaqaloqlarni olib borish taktikasi.
13. Homiladorlikda karonovirus – infeksiyasini aniqlash.
14. OIV – infeksiya diagnostikasi

##### ***4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:***

- taqdimotlar tayyorlash;
- o'quv adabiyotlari bilan ishlash;
- ilmiy jurnallar bilan ishlash;
- internet ma'lumotlaridan foydalanish;
- bemorlar kuratsiyasi;
- navbatchilikda turish;
- vaziyatli masala va testlar tayyorlash;
- simulyatsion - trenajer xonalardan foydalanish;
- tematik videofil'mlarni ko'rish;
- patanatomik tekshuriv jarayenida qatnashish;
- referativ ma'ruzalar tayyorlash;
- retseptlar yozish;
- modellar yasash, jadvallar, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k;
- klinik fikrlashini baxolash varakasini tuzish;
- video- va audiokassetalar yordamida amaliy kunikmalarni egallash;
